O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
SURXONDARYO VILOYATI UZUN TUMANI HOKIMINING
Q A R O R I

Uzun tumani, O‘zbekiston ko‘chasi 7-uy, 191100, tel.: (+99876) 44-73-545, uzun.t@exat.uz

2022 - yil 30 - iyun 281-8-118-Q/22 Uzun tuman hokimligi

Uzun tumanining qishloq aholi punktlari hamda ijtimoiy soha obyektlariga ichimlik suvini maxsus texnikalarda yetkazib berish tariflarini belgilash to‘g‘risida

“Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunining 6,25-moddalari, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2000-yil 19-dekabrdagi “Kommunal xizmatni boshqarish tizimini yanada isloh qilish to‘g‘risida”gi PF-2791-sonli Farmoni 4-bandi, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2014-yil 15-iyuldagi 194-sonli qarori bilan tasdiqlangan “Iste’molchilarga suv ta’minoti va oqova suvni chiqarish xizmatlari ko‘rsatish qoidalari”ning 118-bandi ijrosini ta’minlash maqsadida,

Q A R O R Q I L A M A N:

1. Tumanning qishloq aholi punktlariga ichimlik suvini maxsus texnikalarda yetkazib berish tariflari 1-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

2. Mazkur qaror mahalliy davlat hokimiyati organlari qarorlari e’lon qilinadigan rasmiy manbalarda (O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, mahalliy davlat hokimiyati organlarining rasmiy nashrlari) rasmiy e’lon qilingan kundan e’tiboran kuchga kiradi.

3. Ushbu qarorning bajarilishini nazorat qilish tuman hokimining o‘rinbosari X.Berdimuratov zimmasiga yuklansin.

Hokim **B.B.Tursunov**

Uzun tuman hokimining
2022 yil 30 iyundagi
281-8-118-Q/22-son qaroriga
1-ilova

Uzun tuman hududidagi aholi (iste’molchilari)ga maxsus texnikalar orqali toza ichimlik suvi yetkazib berish ichimlik suvi miqdori, muddati va yetkazib berish xizmati uchun to‘lovlar tarif narxlari

№	Hudud nomi	Miqdori (tn)	Muddati	Suv olish nuqdasidan aholi punktigacha bo‘lgan o‘rtacha masofa (km)	Hududlar bo‘yicha QQSsiz o‘rtacha ta’rif	
					So‘m (1tn)	So‘m (1litr)
	1	2	3	4	5	6
1.	“O‘rmonchi” MFY	8 tn	har 7 kunda	45 km	35 000 so‘m	35 so‘m
2.	“Xursand” MFY	8 tn	har 7 kunda	35 km	35 000 so‘m	35 so‘m
3.	“Zarkamar” MFY	8 tn	har 7 kunda	60 km	35 000 so‘m	35 so‘m
4.	“Tomchi” MFY	8 tn	har 3-4 kunda	55 km	35 000 so‘m	35 so‘m
5.	“Ulanqul” MFY	8 tn	har 7 kunda	20 km	35 000 so‘m	35 so‘m
6.	“Mustaqillik” MFY	8 tn	har 7 kunda	20 km	35 000 so‘m	35 so‘m
7.	“Mustailliknning 22 yilligi” MFY “Sochtepa” qishlog‘i	8 tn	har 7 kunda	20 km	35 000 so‘m	35 so‘m
8.	“Serharakat” MFY	8 tn	har 7 kunda	15 km	35 000 so‘m	35 so‘m
9.	“Obod yurt” MFY “Otchopar” qishlog‘i	8 tn	har 7 kunda	15 km	35 000 so‘m	35 so‘m